# ORTIQCHA TANA VAZNIGA EGA BEMORLARDA SURUNKALI PANKREATIT KASALLIGINI KECHISHIGA HAVF OMILLARINING TA'SIRI

***Yuldashov J.A.***
*Urganch davlat tibbiyot instituti*
*Oilaviy shifokor tayyorlash kafedrasi PhD, dotsent*
***Matrasulova D.M.***
*Urganch davlat tibbiyot instituti*
*Oilaviy shifokor tayyorlash kafedrasi assistenti*
***Jumaniyazov A.A.***
*Urganch davlat tibbiyot instituti magistr*
***Quramboev B.Sh.***
*Urganch davlat tibbiyot instituti magistr*

***Dolzarbligi:*** *JSST ma'lumotlariga ko'ra 2014 yilda yer yuzidagi 18 yoshdan katta aholining 1,9 mlrd. ortiqcha tana vazni va 600 mln dan ortig'ida semizlik mavjudligi aniqlangan (T.V. Juk, 2017; Ye.N. Andreev va b.q., 2019). Bu ko'rsatkich 2030 yilga borib 2,5 mlrddan oshishi taxmin qilinmoqda. Boshqa surunkali noinfekon kasalliklar kabi semizlik rivojlanish chastotasi va epidimiologiyasi aholining etnik farqi, geografik va ijtimoiy-iqtisodiy yashash sharoitlari bilan bog'liqdir (Y .Hang, S. Wang, 2012 ).*

***Tadqiqot maqsadi:*** *Ortiqcha tana vazniga ega bemorlarda surunkali pankreatit kasalligini kechishiga havf omillarining ta'sirini o'rganish.*

**Materiallar va usullar:** Ortiqcha tana vazngа ega bemorlarda surunkali pankreatit kasalligini kechiga havf omillarini aniqlash uchun quyidagi klinik usullardan foydalainildi: shikoyatlarni yig'ish, kasallik tarixi, hayot anamnezi, premorbid fonda baholash, qon yoyma tahlili, qon biokimyoviy: qonda amilaza, qonda qand miqdori ALT, AST, biluribin tahlillari, jigar va oshqozon osti bezi ultra tovush tekshiruvi, a'zolar faoliyatini ob'ektiv tekshiruvdan o'tkazish. Asosiy 1-guruhni 22 nafar surunkali pankreatit va ortiqcha vazngа ega bemorlar, 2-guruhni 28 nafar surunkali pankreatit va optimal tana vazniga ega bemorlardan iborat.

**Natijalar:** Ortiqcha vazngа ega bemorlarda surunkali pankreatitni guruhlar bo'yicha uchrashi: 1-guruhda 82,5% da surunkali pankreatit biliar etiologiyali, 12,5% da surunakli pankreatitning alkogol etiologiyali, 5% bemorda esa idiopatik pankreatit kuzatilgan. 2-guruhda esa asosan surunkali pankreatit kasalligida biliar etiologiya ustunlik qilgan 78%, alkogol etiologiyali 18%, idiopatik pankreatit 4%da kuzatildi.

**Xulosa:** Ortiqcha vaznga ega bemorlarda surunkali pankreatit kasalligi kechiga havf omillarining etiologik jihatdan biliar patologiyalar asosiy o'rinni egalagan ikkala guruh bemorlarda ham, boshqarib bo'ladigan havf omillardan alkogol ta'siri ham muhim o'rin tutadi. Ortiqcha vaznga ega bemorlarda bu belgilar normal tana vazniga ega bemorlarga nisbatan o'girroq va asoratlar bilan kechishi ko'proq uchraydi.